

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.Amil, A.G.Sabirdinov	
XX asr o'zbek lirikasi va Oybek she'riyati	6
N.P.Farmonov	
Realistik va psixologik tasvir: "Girdob" romani qahramonlari misolida	14
N.A.Abdullayeva	
Gender leksik birliklarining lingvomadaniy ko'rinishlari	18
A.Eshniyazova	
Muallif konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari.....	22
Z.Q.Eshanova	
Istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari sintezi	27
J.B.Sayidolimov, I.B.Xabibullayev	
"Qisasi rabg'uziy" ning struktur tuzilishi	33
I.B.Xabibullayev	
Badiiy adabiyotda oila mavzusining shakllanishi va rivoji	42
E.G'.Qurbonova	
Lutfiy lirikasida badiiy mazmun va irfoniy talqin uyg'unligi	47
U.S.Ochilov	
Stiven Kingning «It» va «Green mile» romanlarida magik realizmning badiiy talqini.....	52
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo she'rlarida band tizimlari	58
N.N.Sharipova	
Xamsanavislik an'anasi va unda Toshlijali Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonining o'rni	63
S.A.Olimjonov	
"Uch og'ayni" romanida "yo'qotilgan avlod" tasviri	69
I.M.Jurayev, H.A.Jo'rayev	
"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma"da an'ana va vorisiylik.....	74

Sh.M.Iskandarova, K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari.....	79
Sh.Sh.Uralova	
Ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffikslar yordamida hosil bo'lishi va ularning so'z yasash modellari.....	83
I.F.Porubay, F.R.Nishanova	
Zamonaviy global jamiyat sharoitlarida lingvomadaniy birliklarning rivojlanish omillarining tahlili...	90
M.S.Sayidazimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'lining bo'lishsizlik shaklini yasovchi ayrim vositalar	96
X.G'.Raximboyeva, M.G'.Matlatipova	
O'zbek tili iyerarxik korpusini yaratishda ma'lumotlar bazasini yig'ish, gaplarni annotatsiyalash va tokenlash jarayoni.....	100
Л.Мамедзаде	
Приемы рифмообразования в паремиологических единицах турецкого и азербайджанского языков.....	107
N.A.To'xtasinova	
Pretsedent nom, jumla va matnlarning mediamatn birliklari sifatidagi tadqiqi	113
Z.I.Akbarova	
Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan "Ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanilishi	118
Ё.М.Алтамишева	
Из истории изучения религиозных терминов в отечественной терминологии	121



UO'K: 821.512.133.091

MUALLIF KONSEPSIYASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АВТОРСКОЙ КОНЦЕПЦИИ

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE AUTHOR'S CONCEPT

Ayimxan Eshniyazova 

O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
doktoranti, f.f.b.f.d., (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyotshunoslikda “muallif” va “muallif konsepsiyasi” terminlarining ilmiy-nazariy asoslari o'rganilgan. Muallif konsepsiyasi bu muallifning badiiy, ilmiy, ijodiy dasturi ekanligi, u bir qancha komponentlardan iboratligi, bu komponentlarning mohiyati hamda muallif konsepsiyasining ilk ilmiy muammo sifatidagi talqini berilgan.

Abstract

This article explores the scientific and theoretical foundations of the terms “author” and “authorial concept” in literary studies. The authorial concept is defined as the author's artistic, scientific, and creative framework, consisting of several components. The essence of these components is explained, along with an interpretation of the authorial concept as a foundational issue in literary theory.

Аннотация

В данной статье исследуются научно-теоретические основы терминов “автор” и “авторская концепция” в литературоведении. Раскрывается суть авторской концепции как художественной, научной и творческой программы автора, состоящей из ряда компонентов. Дается характеристика этих компонентов, а также интерпретация авторской концепции как первоначальной научной проблемы.

Ключевые слова: автор, образ автора, концепция, авторская концепция, авторская позиция, художественная реальность.

Kalit so'zlar: muallif, muallif obrazi, konsepsiya, muallif konsepsiyasi, muallif pozitsiyasi, badiiy voqelik.

Key words: author, author's image, concept, author's concept, author's position, artistic reality.

KIRISH

Zamonaviy adabiyotshunoslikda “muallif” atamasini tushunishning kamida uchta asosiy jihati mavjud: asarning haqiqiy muallifi, “muallif obrazi” va ijodiy faoliyat subyekti sifatidagi “muallif”. Badiiy matndagi muallif munosabatlari – *aniq-empirik shaxs, ijodkor-muallif va matn ichidagi muallif* o'rtasidagi aloqalar muammosi adabiyot nazariyasining eng murakkab masalalaridan biridir. V.V.Prozorov fikricha “Matndan tashqaridagi muallif va matnga singdirilgan muallif o'rtasidagi munosabatlarni to'liq tavsiflash mushkul. Muallif matnga “singib ketadi” va biz bunga to'la asosli ravishda muallif obrazi, muallif nuqtayi nazari, asardagi muallif pozitsiyasi haqida gapiramiz. Muallifning subyektiv va yetakchi roli, muallif g'oyasi, muallif konsepsiyasi (fikri, irodasi) asarning har bir “hujayrasi”da va matnning badiiy butunligida namoyon bo'ladi” [9, 73].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Birinchi ma'noda muallif – o'z hayot yo'li va tarjimai holiga ega bo'lgan, badiiy bo'lmagan voqelikda mavjud shaxs sifatida namoyon bo'ladigan yozuvchidir. Biografik muallifni estetik hodisaning ishtirokchisi, butun asar ifodasi bo'lgan g'oyaning tashuvchisi sifatidagi muallifdan ajratish kerak. Muallif termini – tuzuvchi, tartib beruvchi, yaratuvchi, ijodkor ma'nolarini anglatadi. Adabiy asarni yaratgan real shaxs, avtor terminiga sinonim sifatida ishlatiladi. “Estetik faoliyat subyekti” (M.M.Baxtin) yoki muallif-ijodkor, uning mavjudligining yagona shakli – badiiy asarning o'zi, ya'ni yagona ma'no, dunyoga va boshqa insonga (qahramon, kitobxonga) nisbatan yagona ma'noning, yagona shaxsiy pozitsiyaning ifodasi bo'lgan yaxlit asar [4, 358]. Demak, muallif mavjudligining asosi va muallif pozitsiyasining ifodachisi yagona javhar bu – badiiy asar. Zamonaviy adabiyotshunoslikda biografik muallif bilan badiiy matnda namoyon bo'luvchi muallif

ADABIYOTSHUNOSLIK

obrazi farqlanadi. Biografik muallif real hayotda mavjud bo'lgan, muayyan asarning yaratuvchisi, unga nisbatan mualliflik huquqiga ega bo'la oladigan shaxs. "Muallif obrazi – badiiy asar matnidan anglashilib turuvchi muallif shaxsi. Muallif shaxsi asar badiiy voqyeligiga singib ketadi, chunki badiiy voqyelik ijodkor tomonidan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta yaratilgan voqyelikdir" [7, 183]. D.Hatamova tadqiqotida muallif terminini antik davrdan boshlab bugungi kungacha rivojlanish bosqichlari va termin semalarining kengayishi bo'yicha o'zining ilmiy mulohazalarini beradi. Bunda "Aflotun qarashlarida muallif asarni ilohiy qudratga tayanib yaratsa, Arastu yozuvchi faqatgina o'z qobiliyatiga va aql-idrokiga tayanib, syujet yaratishini e'tirof etadi" deydi va mulohazani yanada aniqroq qilib: biri ijodkorni asarga daxlsiz qilsa, ikkinchisi asar muallifining dunyo manzarasini anglashdagi "men"ning namoyishi deb biladi [6, 43].

N.D.Tamarchenkoning muallif pozitsiyasiga bergan baho va fikrlari mulohazaga chorlaydi. Olim muallif pozitsiyasini adabiy asar qahramoni va uning dunyosiga muallif-ijodkor tomonidan beriladigan estetik baho ekanligi hamda u "tashqaridan kuzatish" va "hayotdan tashqarida faollik" kabi tamoyillarga asoslanishini aytadi. "Hayotdan tashqarida faollik" tamoyilini estetik xususiyatga egaligi, sababi qahramon va uning dunyosi ularning mavjudligida, o'z maqsadlari va tushunishlari mumkin bo'lgan hayot ma'nosidan tashqari baholanadi hamda qahramonning hayotiy qadriyatlarini shaklini tartibga solishda (ya'ni estetik obektni yaratishda) namoyon bo'ladi degan xulosani beradi. N.D.Tamarchenko personajlar dunyosining qadriyatlar tizimi, qahramon qadriyat markazida turishiga alohida urg'u beradi. Bu qadriyatlar bilish va axloqiy bo'lishi, shuningdek, qahramonning bilimi va xatti-harakatlarida amalga oshirilishi muallif-ijodkor uchun tasvirlash va baholash predmeti hisoblanadi. Olim qahramon o'zining muallif tomonidan yaratilgan to'qima natijasi ekanligini bila olmasligini, ya'ni mualliflik pozitsiyasini Xudoning odamga bo'lgan munosabatiga o'xshatadi. Bunga asos qilib, vaqt va fazodan hamda "ma'nodan tashqari" xususiyatlarini ko'rsatadi [4, 173]. Baxtin qahramonga muallifning "in'omi" – estetik muhabbat va estetik najot in'omi haqida so'zlaydi. Yangi davr adabiyotida qahramon dunyoni baholash vositasi sifatida namoyon bo'ladi, shu bilan birga, mualliflik pozitsiyasini na bu baho bilan, na barcha personaj-subektlarning dunyoga bo'lgan nuqtayi nazarlari va baholari yig'indisi bilan tenglashtirib bo'lmazligi aniq. Muallif pozitsiyasi har biri ma'lum bir ma'noviy yo'nalishni o'zida mujassam etgan obrazlarning o'zaro munosabatlaridan kelib chiqqan holda tavsiflash mumkin deyiladi, chunki munosabat personajlar dunyoqarashidan tashqarida bo'lib, uni faqat muallif va o'quvchi ko'ra oladi. N.D.Tamarchenko muallif pozitsiyasini aniqlashda obrazlarning o'zaro munosabati terminini old planga chiqardi.

Muallif – maqomi va bajaruvchi vazifasi, yukiga ko'ra farqlanadi. Real-biografik muallif, badiiy asarning g'oyaviy konsepsiyasini tashuvchi muallif va badiiy qahramon muallif. U real ijodkor bilan bog'liq, biroq u bilan aynan emas, chunki badiiy asarda ijodkor shaxsiyatining butun mohiyati emas, balki uning ayrim qirralari aks etadi. Bundan tashqari, badiiy asar muallifi kitobxonda qoldirgan taassurot jihatidan real muallifdan keskin farq qilishi mumkin. Masalan, A.Grin asarlarida yorqinlik, bayramonalik va idealga romantik intilish muallifni tavsiflaydi, A.S.Grinevskiyning o'zi esa, zamondoshlarining guvohlik berishicha, butunlay boshqacha – ko'proq g'amgin va tund odam bo'lgan. Ma'lumki, barcha hajviy yozuvchilar ham hayotda quvnoq odamlar bo'lavermaydi. Chexovni hayotlik chog'ida tanqidchilar "g'ira-shira qo'shiqchisi", "pessimist", "sovuqqon" deb atashgan, bu esa yozuvchi tabiatiga mutlaqo to'g'ri kelmasdi [2,11]. Adabiyotshunoslik tahlilida muallif turkumini ko'rib chiqishda biz haqiqiy muallifning tarjimai holi, uning publitsistik va boshqa badiiy bo'lmagan fikrlaridan chetlashamiz va muallif shaxsiyatini faqat ma'lum bir asarda namoyon bo'lgani uchun o'rganamiz, uning dunyo konsepsiyasi va dunyoqarashini tahlil qilamiz. Ba'zi so'z san'ati asarlarida yaratiladigan muallif obrazini real biografik shaxs sifatidagi muallif va asar konsepsiyasining tashuvchisi sifatidagi muallif bilan adashtirib yubormaslik lozim. Muallif obrazi asar ichida mazkur asar ijodkori obrazi yaratilganda yuzaga keladigan alohida estetik turkumdur. Ijodkor ijodiy laboratoriyasi, adabiy estetik qarashlarining shakllanish omillari biografik metod asosida ancha tadqiq qilingan. Muallif ijodiy konsepsiyasi termini adabiyotshunoslikda o'rganilmagan, haqiqiy so'z san'atkorining ijod mohiyati, sirini ochib beradigan termin hisoblanadi.

shaxs Nazar Eshonqul –ijodkor Nazar Eshonqul – Nazar Eshonqul obrazi

Muallif-ijodkor konsepsiyasini M.M.Baxtin ishlab chiqqan bo'lib, uning pozitsiyasini **"tashqarida turish"** holati sifatida tavsiflagan. Muallif-ijodkor qahramonga nisbatan **"hayotdan tashqari faol"** munosabatni amalga oshiradi. M.M.Baxtinning fikricha, "agar "muallif obrazi"

deganda muallif-ijodkorni tushunilsa, har qanday obraz – bu doimo yaratilgan narsa, yaratuvchi emas”. Muallif obrazini bir tomondan, tasvir va nutq subyekti bo'lgan badiiy asar qahramonlari bilan, boshqa tomondan esa muallif-ijodkor bilan bog'lash kerak. M.M.Baxtin asar yaratuvchisi yoki ijodkorini “birlamchi”, muallif-ijodkor yaratgan muallif obrazini esa “ikkilamchi” deb ataydi. Muallif-ijodkorni ikkilamchi tasvirlovchi subektlar: muallif obrazi, hikoyachi va roviydan farqlash zarur” [1, 119].

Muallif konsepsiyasini o'rganishda konsepsiya terminining ma'no, mazmuniga diqqat qaratishimiz lozim. Konsepsiya – bu tizimli qarashlar, shuningdek, biror narsaning asosiy g'oyasi. Boshqacha aytganda, bular adibning shaxs nima, uning jamiyat va yerdagi o'rni va maqsadi nima, san'atda, hayotda haqiqat, ezigulik va go'zallik qanday ekanligi haqidagi fikrlari. *Ijodkorning badiiy, ijodiy, hayotiy dasturi konsepsiyasi bo'ladi*. Badiiy konsepsiya hayotning, uni ishlab chiqarishdagi muammolarining obrazli talqini, san'at hamda individual asarning, ham butun rassom ijodining o'ziga xos g'oyaviy va estetik yo'nalishi. Badiiy konsepsiya – muallif tomonidan taklif etilgan loyihalash obyektining estetik shakllanish tizimi va tamoyillaridir, asosiy badiiy obrazlar, badiiy g'oya va asar yechimi, hayotning, uning san'at asarlaridagi muammolarining obrazli talqini, ayrim asarning ham, umuman ijodkor ijodining ham o'ziga xos g'oyaviy-estetik yo'nalishidir. Badiiy konsepsiya muallif nuqtayi nazarining bevosita va to'liq ifodasi hamda ijodkorning subyektiv niyatlariga har doim ham mos kelmaydigan ijodiy jarayonning obektiv natijasi sifatida farqlanadi.

Konsepsiya terminining umumiy mohiyati ensiklopedik lug'atda shu tarzda beriladi: “Konsepsiya – majmua, tizim. 1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtayi nazar; 2) adabiyotda – biror asarning asosiy g'oyasi. Konsepsiya badiiy asar mohiyati, ijodkorning «meni»ni ifoda etadi. Biroq badiiy asar konsepsiyasi ayrim holatlarda muallifning subyektiv qarashlaridan keng qamrovli bo'lishi mumkin. Ba'zan muallif mo'ljaliga zid holat yuz bersa ham, mohiyat e'tibori bilan asar o'z konsepsiyasiga ko'ra muallifning badiiy-estetik olamiga tegishli bo'ladi. Inson va borliq mohiyatiga ko'ra, konsepsiya bir butunlikni tashkil etadi” [10, 23]. Milliy qomusda konsepsiyaning mohiyati asoslanadi, ya'ni muayyan ijodkorning o'z konsepsiyasi yoki alohida olingan haqiqiy san'at asarining konsepsiyasi tarzida qo'yilishi mumkinligi aytiladi. Boshqa jihatdan, badiiy asar konsepsiyasi unda tasvirlangan badiiy-estetik, obrazli dunyo orqali hayotni anglash mexanizmi – usuli bo'lib ham maydonga chiqishi, konsepsiya badiiy asarning san'at, adabiyot va madaniyat tarixidagi o'rnini hamda o'quvchilar ommasiga ta'sir etish darajasini belgilaydi deyiladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida konsepsiya quyidagicha izohlanadi: Konsepsiya – qarashlar, fikrlar, Yo'nalishi tizimi; fikr yiritish, dunyoni tushunish, anglash usuli [11, 894]. Jahon falsafa qomusida esa tushunish va tushuntirish usuli sifatida qaraladi: “konsepsiya – (lot. konseptio – tushunish, sistema) muayyan yo'nalishdagi asosiy g'oya va uni tushuntirish vositasi; biron-bir narsa yoki jarayonni tushunish va tushuntirish usuli [3, 623]. Bundan tashqari konsepsiya so'zi “to'plash”, “birlashish”, “tizim”, “ibora” ma'nolarini anglatadi. Qarashlar, fikrlar yo'nalish tizimi degan qarashlar ham bor.

NATIJA VA MUHOKAMA

Badiiy konsepsiya g'oyaning harakatini emas, balki muayyan g'oyaviy yo'nalishni belgilaydigan hayot harakatini o'z ichiga oladi. Badiiy konsepsiya butun asarni qamrab oladi va shu bilan birga uning ma'lum bir ma'no ustuvorligiga ega bo'ladi. U har doim o'zaro ajralmas holda olingan *inson konsepsiyasi va olam konsepsiyasidir*.

Q.Yo'ldoshev muallif konsepsiyasini quyidagicha izohlaydi. “Muayyan bir asarda muallif shaxsiyatidagi qaysidir ma'naviy, e'toqidiy, ruhoni, insoniy qirralari ko'proq namoyon bo'ladi. Ya'ni badiiy yaratqda muallifning asar konsepsiyasiga aylangan jihatlari tizimi aks etadi” [8, 49]. Yana konsepsiya yozuvchining asar yaratishdagi asosiy bosh g'oyasi (Q.Yo'ldosh bilan suhbatdan). S.To'laganova muallif konsepsiyasini ijodkorning ijodiy dasturi deya ta'riflaydi: “Ijodkor estetik ideali va ijodiy “men”ini timsolga joylash barobarida o'zining ijodiy dasturini, ya'ni konsepsiyasini bayon qiladi [5, 10]. Yozuvchi Nazar Eshonqul konsepsiyani dunyoqarash, yozuvchining dunyoqarashi, asar ham dunyoqarash mahsuli degan fikrni aytdi (*yozuvchi bilan suhbatdan*). D.Xatamova tadqiqotida muallif konsepsiyasini badiiy niyat, uning badiiy ifodasi, adabiyotining an'anaviyligi va oxirgi natija badiiy mazmun tushunchasi misolida tushuntirib beradi: “muallif g'oyasining kitobxonga yetkazilishi masalasini oydinlashtiruvchi”, “muallif konsepsiyasida badiiy

ADABIYOTSHUNOSLIK

niyat va uning badiiy ifodasi ham, badiiy adabiyotning an'anviyligi masalasi ham o'z aksini topadi. Bu kategoriyalarning har birini alohida o'rganish orqali badiiy mazmun tushunchasi to'laqlonli tasavvur qilinadi" [6, 195].

Estetika lug'atida badiiy konsepsiyani ikki ma'noda tushuntirib beradi. Avvalo, muallif pozitsiyasining bevosita va to'liq ifodasi hamda ijodiy faoliyatning obektiv natijasi sifatida farqlanishi aytilgan holda, ijodkorning subyektiv niyatlariga har doim ham mos kelavermaydi degan munozarali fikrni bildiradi. Ikkinchi ma'noda esa badiiy konsepsiya muallifning subyektiv tasavvuriga qaraganda doimo kengroq va boyroq bo'lishini aytadi [12]. Lug'atda badiiy konsepsiya o'zida g'oyaning harakatini emas, balki muayyan g'oyaviy yo'nalishni belgilab beruvchi hayotning o'z harakatini mujassamlashtiruvchi, butun asarni qamragan holda uning ba'zi bir ma'noviy ustunliklarini ham o'z ichiga oluvchi, har doim insonning konsepsiyasi va o'zining ajralmasligida olingan dunyoning konsepsiyasi degan batafsil xulosaviy ta'rifni beradi. Shuningdek, lug'atda muallif konsepsiyasi bilan bir qatorda asar konsepsiyasiga ham e'tibor qaratiladi: "Asar konsepsiyasi uning badiiy madaniyat tarixidagi hayoti, xarakteri va auditoriyaga ta'sir darajasini belgilaydi" [12]. Shu bilan birga asar konsepsiyasida asarning to'liqligi, tugallanganligi, tartibilligi kabi o'lchovlar bilan baholanishi hamda asarni hayotga keltirgan obektiv voqelikka munosabat ham qamrab olingan bo'ladi.

Muallifning ijodiy konsepsiyasiga berilgan ta'riflarni umumlashtirganda, quyidagicha qoida tizimi kelib chiqadi. Muallif konsepsiyasi **ijodkorning badiiyat olamidagi yaxlit qiyofasi, shaxsiy dasturining jamlanmasi**. Konsepsiya yozuvchining **ijodiy, badiiy, hayotiy dasturi**. Uning bir qancha komponentlari bor:

1. Ijodkor shaxsiyati
 - a) biografik "men"
 - b) ijodiy "men"
2. Dunyoqarashi
3. G'oyasi
4. Estetik ideali
5. Ijodkor uslubi

Yozuvchining poetik mahorati konsepsiyaning asardagi badiiy ifodasi, kitobxonga taqdim qilish shakli bo'lgani uchun uni oraliqdagi jarayon sifatida tasavvur qildik. Yozuvchining kelib chiqishi, qaerda katta bo'lgani, qaerda yashagani, qaerda o'qishi, uning real holatdagi xarakteri, "men"i bular hammasi yozuvchi konsepsiyasini shakllantiruvchi omillar. Yozuvchining estetik ideali, maqsadi, g'oyasi, katta hajmni qamrab oladi. U romanda, hikoyada, qissada bo'y ko'rsatadi. Bu hodisa muallif umum ijodga tegishli xususiyat. Bir asar misolida faqat bir qarrasini ko'rish mumkin. Muallif konsepsiyasi yozuvchilikni maqsad qilgan, badiiy asar yaratishni zimmasiga olgan ijodkorning, badiiy ijod bilan shug'ullanuvchi shaxsning biografik "men"i, ijodiy "men"i, uning hayotda tutgan tutumlari, qarashlari, o'lchamlari, estetik did, saviya, ideali mualliflik konsepsiyasining dasturida alohida komponent bo'lib turadi. Shaxsiyati, uslubi, poetik usullardan foydalanish mahorati, estetik didi, ijtimoiy-siyosiy jamiyat hayotidagi uning pozitsiyasi, e'tiqodi, barcha-barchasini qamrab olgan majmuaning nomi ijodiy konsepsiya.

Konsepsiya yaxlit olinib bo'laklarga bo'linadi. O'sha bo'laklar umumlashtirilib yaxlit bitta xulosaga kelinadi. G'oya konsepsiyaning bir tomoni. Ijodkorning xato kamchiliklari bilan qabul qilish lozim, chunki ijod jarayonida umuminsoniy qadriyatlardan ko'tariladi. Gyote fikricha, "har qanday katta yoki kichik san'at asarida, eng kichigidan tortib, hamma narsa konsepsiyaga borib taqaladi" (Gyote) [12].

Muallif konsepsiyasi komponentlarining ierarxiyasini quyidagicha berishni lozim topdik:

**XULOSA**

Muallif konsepsiyasini o'rganishda – qahramon harakat qiluvchi tarixiy sharoit, yozuvchi yashagan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, mafkuraviy muhit, adabiy jarayon va adabiy an'analar, xalq hayoti va ma'naviyatining o'ziga xosliklari, yozuvchi uslubi kiradi. Muallif konsepsiyasining muhim komponentlarini o'rganish asosida yaxlit asosiy xulosa chiqariladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аминев В.Р. Теория литературы. – Казан, 2014.
2. Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения: Учебное пособие. – 3-е изд. – М.: Флинта, Наука, 2000.
3. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. Birinchi jild. – T.: Ma'naviyat. 2023.
4. Тамарченко Н.Д. Поэтика: слов, актуальных терминов и понятий. – М.: Издательство Кулагиной; Intrada, 2008.
5. To'laganova S. Abdulla Qodiriy: shaxsiyat va ijod. – T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2021.
6. Xatamova D.A. Adabiyotshunoslik terminologiyasida identifikatsiya jihatlari. – T.: "Fast support and result", 2024.
7. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013.
8. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016.
9. Чернец Л.В. Введение в литературоведение: учеб. Пособие. – М. 2004.
10. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 5-jild. – T.: 2003.
11. O'zbek tilining izohli lig'ati. Ikkinchi jild. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
12. <http://philosophy.niv.ru/doc/dictionary/aesthetic/fc/slovar-202-2.htm#zag-216>